UDK: 611.411:616.61-008.64

TALOQ LIMFOID TUGUNCHASINING MANTIYA, MARGINAL VA PERIARTERIAL SOHALARI KENGLIGIGA UREMIK INTOKSIKATSIYANING TA'SIRI

Xodjiyeva N.Sh.

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti, Buxoro, O'zbekiston

Tadqiqotning ilmiy asoslanishi. Taloq limfoid tugunchasi bir jinsli tuzilma emas, balki funksional jihatdan farqlanuvchi mikrozonalar — germinativ markaz, mantiya sohasi, marginal soha va periarterial limfoid mufta — majmuidan iborat. Ushbu zonalarning har biri immun javobning turli bosqichini ta'minlaydi: mantiya sohasi naiv B-limfotsitlar depoosi, marginal soha qondagi antigenlarni tutish maydoni, periarterial soha esa T-hujayraviy javob markazi hisoblanadi. Kimyoterapiyadan keyingi uremik intoksikatsiyada bu zonalarning umumiy limfoid to'qima hisobiga emas, balki bir-biriga nisbatan qanday qayta taqsimlanishi hozirgacha alohida o'rganilmagan.

Tadqiqot obyekti va metodologiyasi. Tajriba 3, 9 va 12 oylik erkak oq zotsiz kalamushlarda (n=210) bajarildi. Buyrak yetishmovchiligi DMBA modeli asosida hosil qilingan teri saratonidan so'ng sisplatin (3,0 mg/kg) yuborish orqali chaqirildi va biokimyoviy jihatdan tasdiqlandi. Korreksiya guruhiga momoqaymoq ildizi damlamasi (2,0 ml/kg, 5 kun) berildi. Taloq to'qimasi 10% neytral formalinda fiksatsiya qilinib, 5–8 mkm qalinlikdagi kesmalar gematoksilin-eozin va Van-Gizon usullari bilan bo'yaldi. Mantiya, marginal va periarterial sohalarning kengligi QuPath 0.5.1 dasturida har bir hayvon uchun 5 ta ko'ruv maydonida o'lchandi.

Natijalar tahlili. Nazorat guruhida mikrozonalar kengligi yosh bo'yicha sezilarli tebranmadi: mantiya sohasi 3 va 9 oyda 40,4±0,9 mkm, 12 oyda 38,67±1,02 mkm; marginal soha mos ravishda 68,0±1,7, 75,0±2,0 va 70,2±1,8 mkm; periarterial soha 75,9±0,7, 82,0±2,0 va 80,18±1,55 mkm ni tashkil etdi. Demak, me'yorda zonal arxitektonika nisbatan barqaror bo'lib qolgan.

Tajriba guruhida esa zonal muvozanat aniq buzildi. 9 oylik hayvonlarda mantiya sohasi 32,6±1,2 mkm gacha (19,3% ga), marginal soha 57,8±1,4 mkm gacha (22,9% ga), periarterial soha esa 58,9±1,1 mkm gacha (28,2% ga) toraydi. Muhim jihati shundaki, torayish darajasi zonalar bo'yicha bir xil bo'lmadi: eng katta yo'qotish T-hujayraviy periarterial sohaga to'g'ri keldi, eng kichigi — B-hujayraviy mantiya sohasiga. Bu uremik intoksikatsiyaning T-zvenoga selektiv ta'sirini morfologik jihatdan tasdiqlaydi. 12 oylik tajriba guruhida zonalarning nisbiy kengayishi (mantiya 46,5±2,06 mkm, marginal 80,7±2,26 mkm) qayd etildi, biroq gistologik tekshiruvda bu kengayish hujayra sonining ortishi emas, balki stromal shish va gemodinamik buzilishlar hisobiga ekanligi aniqlandi.

Korreksiya guruhida 3 oylik hayvonlarda mantiya sohasi 45,10±0,82 mkm, marginal soha 78,90±2,10 mkm, periarterial soha 86,70±1,98 mkm ni tashkil etib, nazorat darajasiga yetdi va undan

biroz oshdi. Ushbu holat reparativ giperplaziya ko‘rinishi sifatida baholandi. Zonal kengliklarning o‘sish sur’ati mos ravishda 3,9%, 3,5% va 5,2% ni tashkil etdi, ya’ni fitokorreksiya periarterial (T-bog‘liq) sohaga nisbatan ustunroq ta’sir ko‘rsatdi.

Amaliy ahamiyati. Uch mikrozona kengligini bir vaqtda o‘lchash taloq remodellanishini yaxlit limfoid maydon ko‘rsatkichiga qaraganda ancha nozik farqlash imkonini beradi va tajribaviy morfologiyada immunosupressiyaning zonal manzarasini tavsiflash uchun qo‘shimcha mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosalar. 1. Tajribaviy uremiyada taloq limfoid tugunchasi mikrozonalari bir tekis emas, balki tanlab — periarterial soha ustunlik bilan — zararlanadi. 2. Keksa yosh guruhida zonal o‘lchamlarning ortishi soxta bo‘lib, shish tabiatiga ega va uni haqiqiy limfoid tiklanish deb talqin qilish mumkin emas. 3. Momoqaymoq ildizi damlamasi bilan korreksiya zonal arxitektonikaning qayta shakllanishiga olib keladi, bunda T-bog‘liq soha eng yuqori javob beradi.